Maktabgacha 6-7 yosh bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish metodikasi: dastlabki natija va tahlillar

Qo‘qon Davlat Universiteti Maktabgacha ta’lim
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti **Madaliyeva Xurshida Ulug’bek qizi**
Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari doktori, professor
Nazirova Go’zal Malikovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada magistrlik dissertatsiyasi mavzusi yuzasidan olib borilgan dastlabki tajriba-sinov ishlarining mazmuni, uning tashkil etilishi, samaradorlik darajalari, dastlabki olingan natijalar haqida so’z yuritiladi.
Kalit so’zlar: Tayyorlov guruhi, xavfsizlik qoidalari, yo’l harakati, maishiy texnika, oila bilan hamkorlik.

Annotation: This article describes the content of the preliminary experimental works on the topic of master's thesis, its organization, the levels of effectiveness, the preliminary results obtained.

Keywords: Prep group, safety rules, traffic, household appliances, cooperation with the family.

Аннотация: В этой статье описывается содержание предварительных экспериментальных работ по теме магистерской диссертации, её организация, уровни эффективности, полученные предварительные результаты.
Ключевые слова: Подготовительная группа, правила безопасности, движение, бытовая техника, сотрудничество с семьёй.

Tadqiqot ishining samarali yakunlanishida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-amaliy va tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarga xavfsizlik qoidalarini o’rgatish jarayonini tashkil etishda tajriba-sinov ishlari samarali va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishiga e’tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlarining maxsus dastur asosida tashkil etilishi esa ularning muvaffaqiyatli va samarali yakunlanishini kafolatlaydi. Mazkur fikrga tayangan holda tadqiqotni olib borish davrida dastlab “Maktabgacha 6-7 yosh bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o’rgatish metodikasi” nomli maxsus amaliyot dastur ishlab chiqildi va shu asosida tajriba sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Qo‘qon shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 28-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti 012-tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilari kuzatish va tahlil qilish maqsadida tanlab olindi. Ana shu maqsadda tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan sinaluvchi tarbiyachilar o‘rtasida maxsus so‘rovnoma o‘tkazildi. Biz so‘rovnomani og‘zaki tarzda amalga oshirdik, negaki, tarbiyachilar og‘zaki so‘rovnomada o‘zlarini erkin tutishlari, bizning mavzuimiz doirasida ham fikrlarini ochiq bayon etishlari ayon bo’ldi.

Tajriba maqsadi: Bolalarda xavfsizlik qoidalari haqida tushunchalar bor-yo’qligini aniqlash, favqulodda vaziyatlarda o’zini qanday tutish yo’l-yo’riqlarini o’rgatish.

Tajriba vazifalari: Bolalarning xavfli vaziyatlarda harakatlanishlari o’rganish va tahlil qilish, turli video-darslar va ko’rgazmali materiallar yordamida ta’lim berish, maxsus mashg‘ulotlar va o‘yinlar tizimini ishlab chiqish, natijalarni solishtirish va baholash

Tajriba bosqichlari:

Aniqlovchi bosqich: Maktabgacha 6-7 yoshli bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish uchun guruh shakllantirish diagnostika testlarini tayyorlash. Natijada quyidagi muammolar: Bolalar xavfsizlik qoidalari, yo'l belgilari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasliklari aniqlandi.

Shakllantiruvchi bosqich: Bu bosqichda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Kuzatish (bolalar va tarbiyachilar kuzatildi, tahlil qilindi)

Savol-javob usuli
Jismoniy mashqlar
Video-darsliklar
Sahnalashtirilgan o'yinlar

Nazorat bosqichi:

Tajriba yakunida bolalarning xavfsizlik qoidalarini bilish darajasi qayta baholandi va dastlabki natijalar bilan solishtirildi. Tajriba boshida past darajadagi bolalar soni ko'p bo'lgan bo'lsa, amaliyot davomida o'rta darajada bolalar soni oshgani kuzatildi. Umuman olganda, xavfsizlik qoidalarini o'rgatishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, tarbiyachilar malakasini oshirish va ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurligi aniqlandi. Tajriba-sinov jarayonida shunga amin bo'ldikki, bolalar favqulodda vaziyatlarga duch kelsa qanday harakatlanish va o'zini qanday tutish , maishiy texnikalardan foydalanishda ehtiyotkor bo'lish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ularga ko'proq amaliy mashg'ulotlar, video-darsliklar, sahnalashtirilgan o'yinlar yuqori samara berishini kuzatdik.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida 6-7 yoshli bolalar uchun xavfsizlik qoidalarini o'rgatishning 4 ta asosiy bloki samarali ekanligi isbotlandi:

A. Yo'l harakati xavfsizligi. Bolalar svetofor signallari, piyodalar o'tish joyi (zebra) va yo'l belgilari bilan tanishtirildi. "Aqlli piyoda" o'yini orqali ko'chani kesib o'tish amaliyoti o'tildi.
B. Maishiy xavfsizlik, Uy va bog'chadagi xavfli buyumlar (elektr asboblari, o'tkir tig'li buyumlar, dori-darmonlar) bilan ishlash qoidalari o'rgatildi. "Xavfli va xavfsiz" didaktik o'yini orqali bolalar buyumlarni saralashni o'rgandilar.
C. Yong'in xavfsizligi. Gugurt bilan o'ynamaslik, yong'in chiqqanda "101" raqamiga qo'ng'iroq qilish va xonadan chiqib ketish tartibi tushuntirildi.
D. Notanish shaxslar bilan muloqot. "Begona kishi bilan ketma", "eshikni ochma" kabi qoidalar rolli o'yinlar orqali mustahkamlandi.

Xulosa qilib aytganda, 28-DMTT tajribasi nafaqat ushbu tashkilotda, balki boshqa ta'lim tashkilotlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xavfsizlik asoslari, ularni o'rgatish metodikasidan foydalanish yuqori natija beradi va ularni amaliyotga keng joriy etish kutilayotgan ijobiy natijani berishiga umid qilamiz va buning uchun hali yana izlanishda davom etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lev Semyonovich Vigotskiy (O'zbek tilidagi darslik mualliflari jamoasi bilan birga). "Pedagogik psixologiya" 2023-yil. O'zbekiston, Toshkent ("O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi).
2. Jan Piaget "Bolaning intellekti va fikrlashining rivojlanishi" (Tanlangan psixologik asarlar to'plami tarkibida) 2012-yil (Qayta nashrlar 2019–2021 yillarda ham kuzatilgan) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent shahri.
3. "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi 2022-yil (takomillashtirilgan ikkinchi nashri). "Ma'rifat-Madadkor" nashriyoti, Toshkent shahri.